DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-oje-05-03-04 Pages: 28-35

Oriental Journal of Education



ON THE CLASSIFICATION OF THE CONCEPT OF ADDRESS IN THE KOREAN LANGUAGE

Diloram Ashirbayeva
Associate Professor, Higher School of Korean Studies, PhD
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: address, exclamation, classification, Wang Hwan Sok, Li Djong Bok, Kan So San, Park Son Min, Kim Gyoo Son.

Received: 26.04.25
Accepted: 28.04.25
Published: 01.05.25

Abstract: An address is a word or phrase that denotes a person or object to which the speech is addressed. The units of address are a sharp, expressive means of conveying various modal meanings, reflecting the speaker's attitude to the listener, actively serving in the exchange of information and widely used in speech activity in our daily life. The article examines the views of Korean linguists on the definition of the concept of conversion. There are also detailed classifications of appeals, which are classified based on the independent opinion of Korean linguists.

KOREYS TILIDA MUROJAAT TUSHUNCHASINING TASNIFLANISHI XUSUSIDA

Diloram Ashirbayeva
Koreyashunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: murojaat, undalma, tasnif, Vang Xvan Sok, Li Jong Bok, Kan So San, Pak Son Min, Kim Gyu Son.

Annotatsiya. Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida keng qo‘llaniladigan, o‘zaro aloqa almashuviga faol xizmat qiladigan, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini aks ettiradigan, o‘zida turli modal ma’nolarni tashiydigan o‘tkir, ta’sirchan vositadir. Mazkur maqolada koreys tilshunoslarining murojaat tushunchasi tavsifi haqidagi qarashlari, fikr-muloxazalari yoritilgan. Shu bilan birga tilshunoslarning bir biridan mustaqil fikri zamirida tasniflangan murojaatlar haqida atroflicha so‘z yuritilgan.

О КЛАССИФИКАЦИИ ПОНЯТИЯ ОБРАЩЕНИЯ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Дилорам Аширбаева
Доцент Высшей школы корееведения, PhD
Ташкентского государственного университета востоковедения
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: обращение, восклицание, классификация, Ванг Хван Сок, Ли Жонг Бок, Кан Со Сан, Пак Сон Мин, Ким Гю Сон.

Аннотация. Обращение — это слово или словосочетание, обозначающее лицо или предмет, к которому обращена речь. Единицы обращения являются острым, выразительным средством передачи различных модальных смыслов, отражающее отношение говорящего к слушающему, активно выступающим во взаимодействии, широко используемое в речевой деятельности в нашей повседневной жизни. В статье рассматриваются взгляды корейских лингвистов на определение понятия обращения. Так же подробно даны классификации обращений, которые классифицируются на основе независимого мнения корейских лингвистов.

Kirish. 1990-yillardan so‘ng Koreyada murojaat birliklari va hurmat shakllariga oid ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa qarindoshlik murojaat birliklari va hurmat shakllari bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot ishlari bugungi kunda ham o‘z dolzarblini saqlab kelmoqda. 1990-yillarda 조선 일보 Choson ilbo (gazeta nomi) va davlat tilini tadqiq qilish markazi tomonidan til normalarini aniqlashtirish maqsadida murojaatlar va hurmat shakllarini o‘z ichiga oluvchi nutq qonuniyatlarini standartlashtirish taklifi ilgari surildi. Mazkur tadqiqot jarayonida «Til odobi» nomli ikki jilddan iborat kitob nashr etildi. 1994-yilda Li Mu Yongning «예절 바른 우리말 호칭» «Odob normasi doirasidagi murojaatlar» va 1997-yilda Ryu Je Bongning «호칭과 지칭 예절» «Murojaat va undalma odoblari» nomli kitobi nashr etilib, mazkur kitobda murojaat va undalma nomlarini qo‘llashdagi xatoliklar, zamonaviy koreys tilida qarindoshlik bilan bog‘liq murojaatlar hamda ijtimoiy munosabatlarda qo‘llanuvchi murojaatlardan foydalanish usullari aniq ko‘rsatib o‘tilgan. [류제봉, 1997]

Asosiy qism. 아버지 [aboji] dada, 어머니 [omoni] oyi, 여보 [yobo] azizim va h.k.lar suhbatdoshga to‘g‘ridan to‘g‘ri qarata aytilganda murojaat bo‘lib kela oladi va koreys tilida 호칭어 [hochingo] deb nomlanadi. Mazkur so‘zning iyeroglifik ma’nosiga murojaat qilsak 호칭 [hoching] dagi 호(呼) [ho] «chaqirmoq» ma’nosini anglatadi.

Vang Xan Seok (왕한석) Braun, Fasold, Oetade kabi chet ellik tilshunoslarning tadqiqotlariga tayangan holda murojaat va murojaat birliklari haqida «So‘zlovchi nutqda suhbatdoshi bilan muloqotga kirishgan jarayonida suhbatdoshiga ishora qilish uchun qo‘llaniluvchi so‘z, ibora hamda ifodadir» deya ta’kidlagan. [왕한석, 2005:17] Li Jeong Bok (이정복) murojaatlarni «So‘zlovchi suhbatdoshi bo‘lmish tinglovchi hamda suhbat jarayonida mavjud bo‘lmagan uchinchi shaxs haqida gapirilganda yoki unga ishora qilinganida foydalaniladigan ifodadir» deya fikr bildirib, uchinchi shaxs haqida keltiriladigan fikrlarni ham o‘z ichiga oladi deb ta’kidlagan.

Kang So San (강서산) hamda Jon In Ju (조은주) lar tomonidan murojaat birliklariga «So‘zlovchi suhbatdoshiga qarata aytgan murojaat so‘zi» deya ta’rif berilgan bo‘lsa, Vang Xan Sok (왕한석) tomonidan esa «So‘zlovchi suhbat jarayonida tinglovchini ko‘rsatish, ishora qilish uchun foydalaniladigan so‘z, ifoda hamda iboradir», «So‘zlovchi suhbat chog‘ida suxbatdoshiga qaratilgan ifodasi» deb ta’kidlagan.

Pak Gap Su (박갑수) (1989), Pak Jeong Un (박정운) (1997) koreys tilidagi murojaatlarni mavzuiy guruhlar kesimida yoritib o‘tgan. Pak Gap Su (박갑수) (1989) koreys tilidagi murojaatlarni guruhlarga tasniflab, murojaatlardagi muammolarni to‘rt guruhga ajratdi. [박갑수, 1989:22] Xvang Bona Yong (황보나영) (1993) Seulda eng ko‘p foydalanadigan murojaatlarni tadqiq qilish maqsadida talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazdi va unga sotsiolingvistik tomondan yondashdi. Va natijada zamonaviy koreys tilidagi murojaatlar xilma xilligi va turli mavzuiy guruhlarga bo‘linganligini aniqladi. Pak Jeong Un (박정운) (1997) Koreys tilidagi murojaatlarni 7 guruhga tasniflab, har bir guruh murojaatlarining qo‘llanilishdagi amaliy o‘ziga xosliklarni batafsil o‘rganib, shu asosida sotsiolingvistik nuqtai nazardan koreys tilidagi qarindoshlik atamalari shakllari haqida o‘z fikrlarini yozib qoldirgan.

Li Jeong Bok (이정복) (2014) ning fikricha murojaatlar orasidagi farq quyidagilarda namoyon bo‘ladi: «Murojaatlar tinglovchiga qaratilgan murojaat, undalma, adresatga qaratilgan ishora ifodalari bilan birgalikda suhbat jarayonida qatnashmagan 3-shaxs haqidagi ishoralargacha o‘z ichiga olishi mumkin». Vang Xan Seok (왕한석) (2005) Li Jeong Bok (이정복) (2014) dan farqli o‘laroq murojaat shakllarining biri sifatida undalma haqida «Asosiy diqqatni jalb etuvchi murojaat shaklidir» deb fikr bildirgan.

Kim Gyu Seon (김규선) murojaatlarni ikki guruhga ajratadi– yaqin qarindoshlarga qaratilgan murojaat birliklari va uchinchi shaxsning qarindoshlariga qaratilgan murojaat birliklari.[김규선, 2001:322] So Jeong Su (서정수)murojaatlarni kishilarni chaqirganda yoki e’tiborini tortish uchun qo‘llanilgan vosita hamda biron kishiga ishora qilishda qo‘llanuvchi vositalarga bo‘lgan. [서정수,1984:123] Chong Dje Do (정재도)o‘zining murojaatlarga qaratilgan tadqiqot ishida

murojaatlarni kishilarga ishora qiluvchi, munosabatlarni ko‘rsatuvchi va qarindoshlik darajasini ko‘rsatuvchi murojaat guruhlariga ajratgan. [정재도, 1989:165] Kim Xe Suk (김해숙)ning fikricha murojaat bu – so‘zlovchining (adresantning) tinglovchiga (suhbatdoshiga, adresatga) qaratilgan birlik, ifodasidir. [김해숙, 2000:57]

Boshqa tillardan farqli o‘laroq, koreys tilida murojaat shakllari o‘ziga xos murakkab tizim bo‘lib, suhbatdoshga murojaat qilishdan avval quyidagi asosiy faktorlar hisobga olinishi zarur:

– suhbat turi (rasmiy, norasmiy);

– suhbatdoshlarning tanishlilik darajasi (notanish, qisman tanish, yaqindan tanish);

– suhbatdoshga bo‘lgan munosabat (hurmat, neytral, familyar, norasmiy-do‘stona va h.k.);

– so‘zlovchining xarakteristikasi;

–adresatning xarakteristikasi ;

– suhbat joyi (uyda, ko‘chada, majlisda va h.k.);

Pak Son Min (박선민) murojaat birliklarini adresant va adresat o‘rtasida muhim nutqiy element bo‘lib, ularning munosabatidan kelib chiqqan holda u yoki bu murojaatni tanlashga zarurat uyg‘otadi deb ta’kidlagan. [박선민, 1995:36] Pak Son Min (박선민) murojaatlarni ism+affiks, kasb hunar va lavozim murojaatlari, ism+qo‘shimcha, qarindoshlik murojaatlari kabi guruhlarga ajratgan. [Yusupova G.A., 2012:143]

Pak Jeong Un (박정운) murojaatlarni 8 guruhga tasniflagan: 1) antroponimik murojatlar, 2) kasb hunar va lavozim murojaatlari, 3) qarindoshlik murojaatlari, 4) olmoshlar yordamida murojaatlar, 5) umumqabul qilingan murojaatlar, 6) turli murojaatlar (laqab, taxallus), 7) nolga teng murojaatlar, 8) yaqin munosabatni ifodalovchi murojaatlar.[박선민, 1995:77]

Quyidagi jadvalda koreys tilshunoslarining murojaat haqidagi fikrlar yig‘indisidan tuzilgan jadvalni ko‘rish mumkin:

Jon Xe Yong (전혜영) murojaatlarni quyidagi guruhlarga bo‘lib tadqiq qilgan: [전혜영, 1994:7].

1-jadval

유형 **Murojaat guruhlari**	**예** **Misollar**
1. 친적 호칭어 Qarindoshlik murojaatlari	할아버지 bobo,아버지 dada, 할머니 buvi, 어머니 oyi, 삼촌 tog‘a, 고모 amma, 이모 xola, 영수 삼촌 Yong Su tog‘a, 영화 이모 Yong Xva xola, 인호 오빠 In Xo aka,
2. 이름 호칭어 Antroponimik murojaatlar	영수 Yong Su, 영수 씨 janob Yong Su , 영수야 xoy Yong Su, 영미 양 Yong Mi xonim, 영수 군 Yong Su janoblari, 김영수 Kim Yong Su, 김영수 군 Kim Yong Su janoblari, 이 영미 양 Li Yong Mi xonim, 김영수 씨 janob Kim Yong Su
	선생님 ustoz, 교수님 domla (professor), 대리님 , 과장님

3. 직함 호칭어 Kasb-hunar va lavozim murojaatlari	bo‘lim boshlig‘i, 김 교수(님) professor Kim , 오 대리(님) O, 이 부장(님) direktor o‘rinbosari Li, 이용호 과장(님) direktor o‘rinbosari Li Yong Xo, 김용수 교수(님) professor Kim Yong Su
4.일반명사형 호칭어 Odatiy murojaatlar	학생 o‘quvchi, 선배 yuqori sinf o‘quvchisi (talabasi), 손님 mehmon, 총각 , 부인 ayol(im), 젊은이 yoshlar
5.감탄사형 호칭어 **E**kspressiv (his-hayajon) murojaatlar	여보세요 qarab yuboring/xoy (allo), 이봐 qarab yuboring, 여기요 qarab yuboring , 저기요qarab yuboring
6. 외래어형 O‘zlashgan murojaatlar	미스터 김 janob (mister) Kim, 미스 리 Li (miss) xonim
7.기타 Turli murojaatlar	마산댁, 목포댁, 김 씨 janob Kim, 김 형 Kim aka

Jon Xe Yong (전혜영) murojaatlarni qarindoshlik murojaatlari, antroponimik murojaatlar, kasb-hunar va lavozim murojaatlari, odatiy murojaatlar, ekspressiv murojaatlar, o‘zlashgan murojaatlar va turli murojaatlarni o‘z ichiga oluvchi 7 ta katta guruhga ajratgan.

Braun (koreys tilshunosning inglizcha nomi) Jon Xe Yong (전혜영) dan farqli o‘laroq murojaatlarni 5 guruhga ajratgan:

2-jadval

유형 **Murojaat guruhlari**	**예** **Misollar**
1. 직함형 호칭어 Kasb-hunar va lavozim murojaatlari	부장 direktor o‘rinbosari, 부장님 xurmatli dekroktor o‘rinbosari
2. 친적형 호칭어 Qarindoshlik murojaatlari	오빠 aka (qiz bolalar uchun), 아버지 dada, 어머님 oyi
3. 자녀 이름 매개형 호칭어 Farzand ismlari vositasidagi murojaatlar	철수 아버지 Chol Suning dadasi, 철수 아버님Chol Suning dadasi, 철수 아빠 Chol Suning dadasi
4. 이름형 호칭어 Antroponimik murojaatlar	김 부장님 xurmatli direktor o‘rinbosari Kim, 김민호 씨 janob Kim Min Xo, 민호 씨 janob Min Xo, 민호야 xoy Min Xo, 민호 형 Min Xo aka
5.대명사 호칭어 Olmoshli murojaatlar	너 sen, 자네 siz,신 siz

Braunning tasnifiga ko‘ra murojaatlar kasb xunar va lavozim murojaatlari, qarindoshlik murojaatlari, farzand ismlari vositasidagi murojaatlar, antroponimik murojaatlar, olmoshli murojaatlar kabi 5 ta guruhga ajratilgan.

이암•최탁래 **(**Liam va Chxve Txak Re)lar murojaatlarni quyidagi 8 guruhga ajratib tadqiq qilgan:

3-jadval

유형 **Murojaat shakllari**	예 **Misollar**
1. 이름 호칭어 Antroponimik murojaatlar	지연아 xoy Jiyon, 김철수 씨 janob Kim Chol Su, 미스 김 janob Kim
2. 직함 호칭어 Kasb xunar va lavozim murojaatlari	김 부장님 xurmatli direktor o‘rinbosari Kim, 회장님 rais, 검사 prokuror, 의사 shifokor, 선생 ustoz, 기자 jurnalist, 교수 등 professor va h.k.
3. 이인칭 대명사 호칭어 II shaxs olmoshli murojaatlar	자네 siz, 당신 siz, 그대 siz, 너 sen, 여러분 등 sizlar va x.k.
4.의사친족 호칭어 Qarindoshlik murojaatlari	아주머니 xola (notanish yoshi katta ayollarga), 아줌마 xola (notanish yoshi katta ayollarga) 아주머니ning qisqargan shakli, 아저씨 amaki (notanish yoshi katta kishilarga), 언니 opa (o‘g‘il bolalarga), 할머니 buvi, 할아버지 등 bobo va h.k.
5.통칭족 호칭어 Umumiy murojaatlar	아줌마 xola (notanish yoshi katta ayollarga), 학생 o‘quvchi (xoy bola), 사장님 direktor/boshliq, 사모님 professorning ayoli (ziyoli kishilarning ayollariga nisbatan),젊은이 등 yoshlar va h.k.
6. 대체형 호칭어 Kundalik ishlatiladigan murojatlar	야 xoy,이봐(요) qarab yuboring, 여기(요) bu yerga qarab yuboring, 저기(요) qarab yuboring, 여보세요 qarab yuboring/allo, 실례합니다 uzr, 죄송합니다 등 kechirasiz va h.k.
7.종자 호칭어 Oila, sulola,rod murojaatlari	철수 엄마 Chol Suning oyisi, 철호 아빠 등 Chol Xoning dadasi va h.k.
8. 지역 호칭어 Joy nomlari bilan murojaatlar	광주 삼촌 Gvanjulik tog‘am, 부산 이모 등 Pusanlik xolam va h.k.

이암•최탁래 **(**Liam va Chxve Txak Re)lar murojaatlarni antroponimik murojaatlar, kasb-hunar va lavozim murojaatlari, II shaxs olmoshli murojaatlar, qarindoshlik murojaatlari umumiy murojaatlar, kundalik hayotda ishlatiladigan murojaatlar, oila, sulola va rod murojaatlari hamda joy nomlari bilan ifodalanuvchi murojaat guruhlariga ajratgan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, murojaat bu tinglovchining diqqatini jalb etish va unga ishora qilish vazifasini bajaruvchi, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlarning oldindan ma’lum ekanligi hamda munosabatlarning tanish notanishligi, yaqin yoki yaqin bo‘lmagan munosabat xolatlarida foydalaniladigan asosiy vositadir. Shunday qilib koreys tilshunoslari tomonidan talqin qilingan turli fikrlarni tahlil qilgan holda suhbatdoshga qaratilgan murojaatlarni eng asosiy quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) ism + suffiks murojaati;

2) ism +qo‘shimcha murojaati;

3) ism + lavozim murojaati;

4) qarindoshlik murojaati;

5) olmoshli murojaatlar;

6) o'zlashma so'zli murojaatlar;

7) undov murojaatlari 여기요 «hoy»;

8) oila va ishda umumqabul qilingan murojaatlar;

9) turli murojaatlar (laqab, taxallus)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Юсупова Г. А. К вопросу исследования обращений в корейском языке.// Вестник Челябинского государственного университета. 2012. № 33 (287). С. 143

2.김규선. 한국 사회와 호칭어. 서울. 한국문화사. 2001.

3.김해숙. 사회적 관점에서 본 현대 한국어. 서울. 도서출판. 2000.

4.박선민. 호칭 및 시스템.서울. 이화여자대학교, 1995.

5.박전운. 호칭의 시스템. 서울. 사회언어학, 1997.

6.서정수. 높임말의 연구. 서울. 한신문화사, 1984.

7.정재도. 호칭어. 서울. 국어생활. 1989.

8.류재봉. 호칭과 지칭 예절. 서울. 1997.

9.표준국어대사전. 서울. 2000.

10.박갑수. 국어생활 국어연구소. 1989.

11.왕한석 (2005) 한국 사회와 호칭어, 역락. 2005.

12.이선화(2002), 공공상황에서의 한국어 호칭 연구, 연세대학교 석사논문. 2002

13.전혜영(1994), 외국인 대상의 한국어 호칭어 교육. 한국문화사. 1994.